NAVOIY VILOYATI NAVOIY SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2025-yil 31-oktabr | 181-5-79-Q/25 | Navoiy shahar hokimligi

Navoiy shahridagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–98-son Farmoniga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish vakolatlari va Navoiy shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining 2025-yil 29-oktabrdagi 17/00-01/3198-sonli xati inobatga olinsin;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-avgustdagi “Mehnat munosabatlari va kasbgatayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-126-son Farmoniga asosan:

budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan

jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Navoiy shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda Navoiy shahar “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining Navoiy shahar hududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi quyidagi takliflari ma’qullansin:

xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun 1 236 ta ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish, **jumladan:**

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 10,2 foiz (126 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 6,8 foiz (84 kishi); kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun 73,1 foiz (904 kishi); muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan

mahrum bo‘lgan shaxslar uchun 3,4 foiz (41 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 6,2 foiz (77 kishi);

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 0,3 foiz (4 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

3. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida **quyidagilar:**

davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **1-ilovaga** muvofiq;

xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin o‘n kundan kechiktirmay ta’minlaydi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Navoiy shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qiladi;

ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlaydi, bu haqda Navoiy shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qilishi lozim; ishga

joylashtirish to‘g‘risida Navoiy shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi.

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi “Aholini tadbirkorlikka jalb qilishva bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-64-son qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘lari to‘lab berilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 3-, 13-, 34-, 38-, 39-, 40-, 41-moddalariga asosan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha Navoiy shahar hokimining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

8. Navoiy shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (J.Ergashev):

besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini 1-ilovada ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazish va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlash; aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha Navoiy shahar hokimining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

9. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qaror kuchga kirgan kundan e’tiboran Navoiy shahar hokimining 2024-yil 14-noyabrdagi “Navoiy shahridagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2025-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida”gi 341-5-79-Q/25-sonli hamda 2024-yil 20-dekabrdagi

“Navoiy shahridagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2025-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida”gi 371-5-79-Q/25-sonli qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan, deb hisoblansin.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari O‘. Haqberdiyev zimmasiga yuklatilsin.

12. Mazkur qaror 2026-yil yanvar oyining birinchi ish kunidan boshlab kuchga kirishi belgilansin.

Shahar hokimi **D.Ergashev**

Navoiy shahar hokimining
2025-yil 31-oktabrdagi
181-5-79-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Navoiy shahrida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli

RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilotning STIRI	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:					
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
	JAMI:		**58236**	**1176**	**1091**	**116**	**68**	**805**	**21**	**77**	**4**
1	Navoiy viloyati sport boshqarmasi sportning o‘yin turlari va yengil atletikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabi	207205564	95	0	4	2		2			
2	“Navoiy yo'llardan muntazam foydalanish”	305316725	166	7	2	0		2			

	DM										
3	Navoiy shahar soliq inspeksiyasi	200006444	56	0	2	1		1			
4	Navoiy shahar 14-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207139124	50	2	2	0		2			
5	Navoiy viloyat qon quyish stansiyasi davlat muassasasi	201529061	67	4	2	0		2			
6	Navoiy shahar 13-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207003182	62	4	4	0		4			
7	Navoiy shahar 6-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203224433	197	5	7	1		6			
8	Navoiy shahar 1-son sport maktabi	203168534	62	6	3	0		3			
9	Navoiy shahar 18- sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203157556	85	7	4	0		4			
10	Navoiy shahar 2-son sport maktabi	203168527	60	7	3	0		3			
11	Quyi Zarafshon gidro-geologiya meliorativ ekspedisiyasi	200035385	77	5	3	0		3			
12	Navoiy viloyati sport boshqarmasi gimnastika sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi	207088821	50	0	2	1		1			

13	Navoiy shahar 2-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	306523174	41	1	2	0		2			
14	Respublika Sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Navoiy filiali	203129939	146	2	5	1		4			
15	Navoiy shahar 26-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	203560579	74	6	4	0		4			
16	Navoiy shahar 16-sonli ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktab	203441307	208	15	7	0	1	6			
17	Navoiy shahar 34-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207138694	67	7	3	0		3			
18	Respublika Ixtisoslashtirilgan Epidemiologiya mikrobiologiya yuqumli va parazitar kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Navoiy viloyat filiali	203840443	223	10	5	0	1	4			
19	Navoiy shahar 19-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207003135	73	4	4	0	1	3			
20	Navoiy shahar 13-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	200006064	103	5	5	0	1	4			

21	Navoiy viloyati hududiy qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi	201424953	74	2	3	0		3			
22	Navoiy viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi davlat muassasasi	200006144	37	5	1	0		1			
23	Respublika Ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Navoiy viloyati filiali	203844169	578	25	10	0	1	9			
24	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining Navoiy viloyati boshqarmasi	310611413	260	51	5	0	1	4			
25	Navoiy viloyat Madaniyat boshqarmasi Navoiy ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi	203396727	295	13	4	0		4			
26	Respublikasi ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Navoiy viloyat hududiy filiali davlat muassasasi	200035322	231	9	5	0	1	4			

27	Respublika o‘rta Tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Navoiy hududiy bo‘linmasi	202423899	68	2	3	0		3			
28	Kadastr agentligi Navoiy viloyat boshqarmasi	200006666	56	5	3	0		3			
29	Navoiy shahar 17-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203382942	228	4	7	3		4			
30	O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligi davlat kadastrlari palatasining Navoiy viloyat boshqarmasi	205567923	242	4	6	2	1	3			
31	Navoiy shahar 17-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207027983	27	0	2	1		1			
32	Navoiy shahridagi 3-sonli fizika fani chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan tayanch maktabi	206974495	112	9	4	0	1	3			
33	Navoiy shahar 20-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207003254	66	1	5	1		4			

34	Navoiy shahar 22-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207028673	36	1	2	0		2			
35	Navoiy davlat universiteti akademik liseyi davlat muassasasi	202587101	93	4	5	1	1	3			
36	Respublikasi shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Navoiy viloyat filiali	200006302	1008	26	10	4	2	4			
37	O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi Navoiy shahar bo‘limi	200006089	52	2	3	0		3			
38	“Navoiysuvqurilishinvest” davlat muassasasi	200034119	21	1	1	0		1			
39	Abdulla Qodiriy nomidagi Navoiy viloyat axborot-kutubxona markazi	206754832	58	1	3	1		2			
40	Navoiy shahar 9-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207003207	60	1	3	1		2			
41	Navoiy shahar 12-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207003239	54	1	3	1		2			

42	O‘zbekiston Respublikasi transport vazirligi Navoiy viloyati transport boshqarmasi davlat muassasasi	306332603	22	1	1	0		1			
43	Navoiy shahar 3-son oilaviy poliklinikasi davlat muassasasi	206943977	148	8	4	0		4			
44	Navoiy viloyati sport boshqarmasi yakka kurash turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi	207108146	118	2	5	2		3			
45	Navoiy shahridagi 15-sonli kimyo va biologiya fanlariga ixtisoslashtirilgan Davlat umumiy o‘rta talim maktabi	200006509	90	2	5	1		4			
46	Navoiy shahar 1-son bolalar musiqa va san’at maktabi davlat muassasasi	203157532	76	1	4	1	1	2			
47	Navoiy shahar 11-sonli ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktab	203201288	234	4	8	3	1	4			
48	Navoiy shahar 18-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207003143	50	2	3	0	1	2			
49	Navoiy viloyati veterinariya va	200006603	31	2	1	0		1			

	chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi davlat muassasasi										
50	Navoiy shahar 15-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207003104	60	4	3	0	1	2			
51	Navoiy shahar 3-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207138710	38	0	2	1		1			
52	Navoiy shahar 1-sonli ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktab	200006563	175	6	6	0	1	5			
53	Respublikasi Ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Navoiy viloyati filiali davlat muassasasi	311843116	60	1	3	1		2			
54	Navoiy mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati	207254171	36	1	1	0		1			
55	Navoiy shahar 2-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203246248	190	5	6	1	1	4			
56	Navoiy viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi	207204161	667	19	12	3	1	8			
57	Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi	311059354	24	3	1	0		1			

	Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi										
58	Navoiy viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasining tibbiy zaxira omborxonasi davlat muassasasi	206950724	26	3	1	0		1			
59	Navoiy shahar 30-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207138663	61	1	3	1		2			
60	Karmana-Konimex irrigatsiya tizimi boshqarmasi	305961573	102	6	4	0		4			
61	O‘zbekiston Respublikasi yoshlar ishlari agentligining Navoiy viloyati yoshlar ishlari boshqarmasi davlat muassasasi	207324923	30	0	1	1					
62	Navoiy shahar hokimligiga qarashli Uy-joy va yotoqxonalardan foydalanish boshqarmasi	204036849	171	7	7	0	0	7			
63	Navoiy shahar 21-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207028199	34	2	2	0		2			
64	Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi davlat muassasasi	305070424	72	5	2	0		2			

65	Navoiy shahar nurli maskan ixtisoslashtirilgan maktab-internati davlat muassasasi	207195340	109	31	3	0		3			
66	Akademik YX To‘raqulov nomidagi respublikasi ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Navoiy filiali davlat muassasasi	203848369	246	11	9	0	1	8			
67	Navoiy shahar 2-son oilaviy poliklinikasi	206943960	176	6	6	0	1	5			
68	Navoiy viloyati davlat arxivi davlat muassasasi	200006223	29	2	1	0		1			
69	O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi Navoiy bo‘limi davlat muassasasi	304959954	26	1	1	0		1			
70	Navoiy viloyati OITSga qarshi kurashish markazi	203129946	106	1	3	2		1			
71	O‘zbek milliy maqom San’ati markazining Navoiy viloyati hududiy bo‘limi	310032983	36	6	1	0		1			
72	Respublika Ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazining narkologiya xizmati bo‘yicha Navoiy viloyati filiali davlat muassasasi	202055597	155	2	2	2					

73	Navoiy shahridagi 4-sonli ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktab	203168510	160	7	6	0	1	5			
74	O‘zbek davlat yer tuzish ilmiy-loyihalash O‘zdaverloyiha instituti Navoiy viloyati bo‘linmasi Navvilerloyiha	202819490	53	1	1	1					
75	Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti akademik liseyi davlat muassasasi	206717924	98	1	4	2		2			
76	O‘zbekiston Davlat filarmoniyasi Navoiy viloyat bo‘linmasi	305901623	63	3	2	0		2			
77	O‘zbekiston futbol assosiyasiyasi tasarrufidagi Navoiy viloyati futbol akademiyasi" davlat muassasasi	201945692	61	4	2	0		2			
78	Navoiy shahar 12- sonli matematika fanini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabi	203201311	190	6	7	0	2	5			
79	Navoiy shahar Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	200006151	29	1	2	0		2			

80	Navoiy viloyati Navoiy shahridagi 5-ixtisoslashtirilgan davlat umumiy o‘rta talim maktabi	203235539	91	3	6	0	1	5			
81	O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Navoiy viloyat hududiy boshqarmasi	200003425	29	0	1	1					
82	Navoiy shahar tibbiyot birlashmasi-ko‘p tarmoqli shahar markaziy poliklinikasi davlat muassasasi	202459520	620	24	10	1		9			
83	Navoiy shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi 27-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207138742	41	2	2	0	1	1			
84	Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti	200006516	777	21	10	1		9			
85	Navoiy shahridagi 16-sonli ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti davlat muassasasi	207027080	75	2	4	0	1	3			
86	Navoiy shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi 4-sonli umumiy turdagi davlat	207003167	78	3	3	0	1	2			

	maktabgacha ta’lim tashkiloti										
87	Navoiy viloyati o‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi	200005991	144	9	6	0		6			
88	Navoiy shahar 8-sonli bolalar Musiqa va san’at maktabi davlat muassasasi	207203321	73	2	3	0		3			
89	Respublika Tez tibbiy yordam markazi Navoiy viloyat filiali	309932391	2266	87	11	0	1	9	1		
90	Navoiy shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi 11-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207003174	82	1	5	1		4			
91	Navoiy viloyat maktabgacha va maktab ta’lim boshqarmasi	200006469	76	2	3	0		3			
92	Navoiy viloyat bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi	201945874	563	12	8	3		5			
93	O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi Navoiy viloyati hududiy boshqarmasi	306245315	26	2	1	0		1			

94	Navoiy viloyati hokimligi kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati davlat muassasasi	204775508	38	1	1	0		1			
95	Navoiy shahridagi 9-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203224440	60	1	4	1		3			
96	Navoiy davlat universiteti davlat muassasasi	200006358	1154	35	10	0	2	7	1		
97	Navoiy shahar 21-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	310821784	55	1	2	1		1			
98	Navoiy shahar obodonlashtirish boshqarmasi	204628729	733	25	39	0	1	25	1	12	
99	Navoiy shahar 6-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207027990	31	0	1	0		1			
100	Navoiy shahar 29-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207138877	47	2	2	0		1	1		
101	Navoiy viloyati Yuridik texnikumi davlat muassasasi	305668976	36	4	1	0		1			
102	Navoiy viloyat Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati boshqarmasi	207330465	160	3	4	2		2			

103	Navoiy shahar 31-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207138703	66	0	3	2		1			
104	Respublika Ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazining Navoiy viloyat filiali	203129954	268	9	7	0	1	5	1		
105	Navoiy shahar Barkamol avlod bolalar maktabi	200004029	29	4	1	0		1			
106	Navoiy shahar 22-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	310749478	105	5	3	0	1	2			
107	Navoiy shahar Madaniyat va turizm bo‘limi	200006033	30	1	1	0		1			
108	Navoiy shahar 7-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203168542	169	4	5	1		4			
109	Navoiy shahar 32-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207139084	62	1	3	1		2			
110	Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyotiga ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabi	305068440	206	6	6	0	1	5			
111	Navoiy shahar 24-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207003214	69	1	2	1		1			

112	Navoiy shahar 10-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207003199	72	1	3	1		2			
113	Navoiy shahar 33-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207138687	59	2	2	0	1	1			
114	Navoiy viloyati Avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi	200850780	27	0	1	0		1			
115	Navoiy shahar Politexnikumi davlat muassasasiI	200005858	180	7	5	0	1	4			
116	Navoiy shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli 23-umumiy o‘rta talim maktabi	311409377	24	2	1	0		1			
117	O‘simliklar karantini va himoyasi agentligining Navoiy viloyati chigirtka va tut parvonasiga qarshi kurash xizmati	308994965	20	0	1	1					
118	Navoiy viloyati Navoiy shahar 20-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206864126	119	3	4	1		3			
119	Navoiy viloyati Navoiy shahar 14-sonli davlat umumiy o‘rta talim maktabi	207243960	85	5	3	0		2	1		
120	Navoiy viloyat ftiziatriya va pulmonologiya markazi	200006254	242	11	6	0	1	5			

	davlat muassasasi										
121	Navoiy viloyati qo‘g‘irchoq teatri davlat muassasasi	309942087	57	5	1	0		1			
122	Navoiy shahridagi Prezident maktabi	308853150	102	1	2	1		1			
123	Navoiy viloyati Teleradiokanali davlat muassasasi	200004503	61	3	1	0		1			
124	Navoiy shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi 5-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207003150	75	2	3	0	1	2			
125	Navoiy viloyati ekologiya atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi davlat muassasasi	200005905	167	3	4	2		2			
126	Navoiy viloyati sport boshqarmasi sportning suv turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi	207145133	44	1	2	0		2			
127	Navoiy shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi 1-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	201945448	66	1	3	1	1	1			

128	Navoiy shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi 8-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207003128	66	5	3	0		3			
129	Navoiy ko‘chatchilikka ixtisoslashgan davlat o‘rmon xo‘jaligi davlat muassasasi	201553120	79	6	3	0		2		1	
130	Navoiy shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi 28-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207138759	44	1	2	0		2			
131	Navoiy viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi davlat muassasasi	200850797	83	3	4	0	1	2		1	
132	Navoiy shahar 10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203233826	171	1	6	2	1	3			
133	Navoiy shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi 23-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207003111	64	1	3	1	1	1			
134	Navoiy olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash	300520190	244	5	6	2		4			

	markazi										
135	Navoiy shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi 7-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207003222	69	2	4	1		3			
136	Navoiy viloyati Navoiy shahridagi 8- sonli informatika va axborot texnologiyalari chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan tayanch maktabi	206897544	311	4	9	3	1	5			
137	“Do‘stlik bayrog‘i va Znamya drujba” gazetalari tahririyati tahririyati davlat muassasasi	207115637	25	2	1	0		1			
138	O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligining Navoiy akademik liseyi	305075869	82	1	1	1					
139	Navoiy viloyati Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi	207255051	23	1	1	0		1			
140	Navoiy viloyat nogironligi bolgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash markazi	202493124	212	13	4	0	1	3			
141	Ko‘p kvartirali uylarni tamirlash boyicha	311937891	30	1	1	0		1			

	injiniring kompaniyasi davlat muassasasi										
142	O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qomitasining navoiy viloyat boshqarmasi	200006096	141	10	3	0		3			
143	Navoiy shahar 1-son oilaviy poliklinikasi davlat muassasasi	206943992	227	10	5	0	1	4			
144	Navoiy shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	200006871	61	3	2	0		2			
145	Navoiy shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi 25-sonli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	207003246	65	3	3	0		3			
146	Navoiy viloyati sport boshqarmasi	309394595	26	0	1	1					
147	Navoiy shahar 4-son oilaviy poliklinikasi davlat muassasasi	206943984	192	13	5	0	1	4			
148	Respublikasi yoshlar markazi" Navoiy viloyati bo‘linmasi	207272332	54	1	1	1					

149	O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Navoiy shahar 1- son ixtisoslashtirilgan maktab- internati	306844890	91	6	3	0		3			
150	Navoiy Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi davlat muassasasi	200006190	177	3	4	1		3			
151	“Navoiy suv ta’minoti” aksiyadorlik jamiyati	300024824	1869	65	20	0		15	1	4	
152	“QIZILQUMSEMENT” aksiyadorlik jamiyati qo‘shma korxonasi	200002878	2354	32	16	2	1	8	1	3	1
153	“NAVOIYAZOT” aksiyadorlik jamiyati	200002933	7890	146	212	5	2	185	1	18	1
154	“NAVOIYDONMAHSULOTLARI” aksiyadorlik jamiyati	201295403	278	11	6	0		4		2	
155	“NAVOIYURAN” davlat korxonasi	201204514	10032	1	36	2	3	25	2	3	1
156	"O‘zbekiston pochtasi" AJ Navoiy filiali	200833833	343	2	12	4		6	1	1	
157	NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI" aksiyadorlik jamiyati	308425864	330	8	15	2	1	7		4	1
158	NKMK” AJ 3-sonli	308425864	490	2	20	2	1	12	1	4	

	avtobaza										
159	“NKMK” AJ “Qizilqum” kon boshqarmasi	308425864	3100	5	34	4	2	22	1	5	
160	“NKMK” AJ “NMZ” ishlab chiqarish birlashmasi	308425864	3800	31	27	3	2	18		4	
161	“NKMK” AJ "Navoiy qurilish-montaj boshqarmasi"	308425864	252	0	10	1		8		1	
162	“NKMK” AJ "Markaziy ilmiy- tadqiqot laboratoriyasi"	308425864	145	0	4	1		1		2	
163	“NKMK” AJ “MMTB”	308425864	217	1	10	1	1	5	1	2	
164	“NKMK” AJ "MSU-79"	308425864	550	6	10	2	1	5	1	1	
165	“NKMK” AJ "Geologiya qidiruv ekspedisiyasi"	308425864	300	2	15	1	1	11	1	1	
166	“NKMK” AJ “ICHAB”	308425864	185	5	10	1	1	5		3	
167	“NKMK” AJ “TEP”	308425864	160	0	8	1		5		2	
168	“NKMK” DMJ "Tibbiyot birlashmasi"	308450922	343	15	10	1	1	6	1	1	
169	Navoiy kon metallurgiya kombinati jamg‘armasi Davlat muassasasi Navoiy hududiy boshqarmasi ijtimoiy obektlar boshqarmasi	308450922	682	1	15	1	1	10	2	1	
170	NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI JAMG‘ARMASI	308450922	3050	1	20	3	3	12	1	1	

Navoiy shahar hokimining
2025-yil 31-oktabrdagi
181-5-79-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Navoiy shahrida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli

RO‘YXATI

T/r	Hudud nomi	Tashkilot nomi	Tashkilotning STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:			
					nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar
		Jami:		**6154**	**16**	**145**	**10**	**16**	**99**	**20**
1	Navoiy shahar	Navoiy shahar ISSIQLIK TA’MINOTI" mas’uliyati cheklangan jamiyati	307122468	1937	16	20	4		15	1
2	Navoiy shahar	"SHARQ RESIDENCY e BUILDING" MCHJ	303700090	101	0	6	0	0	4	2

3	Navoiy shahar	"ERA NAVOIY TRADING" MCHJ	301647411	120	0	6	0	0	6	0
4	Navoiy shahar	"NAVOIY MILLING" MCHJ xorijiy korxonasi	300503188	137	0	10	0	1	7	2
5	Navoiy shahar	"NAVOIYTEARS INVEST" MCHJ	301209955	188	0	7	0	1	4	2
6	Navoiy shahar	"NAVPROMLITMASH" MCHJ	300588810	189	0	8	0	1	5	2
7	Navoiy shahar	"NAVOIY-ISHONCH-GILAMLARI" MCHJ qo‘shma korxonasi	305734601	331	0	24	0	7	15	2
8	Navoiy shahar	"FITO-FARM-LEK" MCHJ	205126427	412	0	8	2	1	4	1
9	Navoiy shahar	"NAVOIY NEFT BAZASI" MCHJ	200002538	413	0	17	2	1	12	2
10	Navoiy shahar	"GIDRO-STANKO-SERVIS" MCHJ	300369838	413	0	15	1	2	10	2
11	Navoiy shahar	"ZARAFSHAN GOLDEN G R O U P"	300066115	425	0	18	1	2	13	2

		MCHJ								
12	Navoiy shahar	"XAYOT KARMANA" MCHJ	311312404	1488	0	6	0	0	4	2